

ILMGA BAXSHIDA UMR

Ismoilova Omina Maxmudjon qizi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Sharq xalqlari tillari va adabiyoti institute Jurnalistika yo'nalishi

1-kurs hindiy-ingliz guruhi talabasi

+998930036673

Aminaa77ismail@gmail.com

Ilmiy rahbar: Filologiya fanlari bo'yicha falsasa doktori (PhD),

dots.v.b. Kamola Raxmatjonova

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada O'zbekiston xalq o'qituvchisi, taniqli pedagog va metodist Suyima G'aniyevanining ilm-fanga, ta'lif-tarbiya sohasiga qo'shgan beqiyos hissasi tahlil qilinadi. Uning uzoq yillik mehnat faoliyati, zamonaviy o'qitish metodikalarining shakllanishidagi roli hamda yosh avlodni tarbiyalashdagi o'mi ilmiy asosda yoritiladi. Maqolada Suyima G'aniyevanining ilmiy-uslubiy ishlari, darslik va qo'llanmalari, shuningdek, uning pedagogik qarashlari orqali milliy ta'llim tizimiga qo'shgan hissasi o'r ganiladi. Tadqiqot davomida pedagog shaxsining namunaviy faoliyati orqali "Ilmga bag'ishlangan umr tushunchasining mazmun-mohiyati ochib beriladi.

Kalit so'zlar: ilm-fan, ilmiy faoliyat, adabiyot, Navoiyshunoslik, adabiy meros, adabiy tadqiqotlar.

ABSTRACT

This article analyzes the invaluable contribution of Suyima Ganieva — People's Teacher of Uzbekistan, a prominent educator and methodologist — to science, education, and upbringing. It highlights, on a scientific basis, her long-term professional activity, her role in the development of modern teaching methodologies, and her significance in educating the younger generation. The article examines Suyima Ganieva's scholarly and methodological works, textbooks, manuals, and her pedagogical views, as well as her contribution to the national education system. Through the exemplary professional life of the educator, the study reveals the essence and meaning of the concept of "a life devoted to science."

Keywords: science, scientific activity, literature, Navoi studies, literary heritage, literary research.

KIRISH

Inson umri u yashagan yillar hisobi bilan emas, balki hayoti davomida egallagan bilimlari va ilm fanga qo'shgan hissasi bilan o'lchanganda kimning hayoti necha "yosh"ga taqqoslanar edi? Agar bu savolga javob izlashga intilib olim-olimlar, fan doktori va professorlar hayoti bilan tanishib chiqilsa, Suyima G'aniyeva faoliyati alohida ajralib turadi.

Bolalik davrlaridanoq kuy-qo'shiqlardan, she'rlardan misralarni yod aytishi va hatto Alisher Navoiy qalamiga mansub murakkab baytlarni chiroyli talaffuz qilishi bilan ota-onasini hayratlantira boshlagan Suyima G'aniyeva keyinchalik o'z iqtidor va qiziqishlarni ilmiy faoliyatga yo'naltirdi.

1947-yilda ikkinchi jahon urushidan keyingi tiklanishning ilk davrlari bo'lishiga, qiyinchilik va to'siqlarga qaramay yosh olma imtixonlarsiz oliygoh talabasiga aylanadi. Bu haqida xotiralar ekan, u shunday yozadi: "Biz talabalar Sharqshunoslik institutida urushdan keyingi anchayin og'ir yillarda saboq oldik. U paytlarda institutlarda darsxonalar, stol-stullar yetishmas edi. Buning ustiga qishda auditoriyalarning sovuqligidan tuzuk o'qiy olmasdik. Yangi o'quv yili boshlanishi bilan talabalar paxta maydonlariga safarbar etilar edi. Ayni ilm o'rganadigan paytda uch oy lab paxtazorlarda sarson-sargardon bo'lardik"¹. O'z talabalik davrlaridagi qiyinchiliklarni yozish bilan bugungi zamon o'quvchilarga eslatma yuzasidan ta'kidlaydi: "Men bu gaplarni bugungi talaba yoshlarimiz yaratib qo'yilgan shart-sharoitlarning qadriga yetsin, deb aytib qo'ymoqdaman"².

Bilimga bo'lgan muhabbati va intiluvchanligi bilan tengdoshlaridan ajralib turadigan Suyima ustozlarining sevimli talabasiga aylanadi. Bu haqida olma "Yoshlik" jurnaliga bergen "Ko'ngil shamchirog'i" maqolasida shunday yozadi: "Ammo adabiyotga bo'lgan chinakam ixlos talabalik yillarda sezildi. O'qituvchilarimiz tavsiyasi bilan she'r yodlash va ifodali o'qish mashg'ulotlari menda she'riyatga, xususan, mumtoz adabiyotga havas uyg'otdi. Mumtoz adabiyotni anglaganim sari hayratim, qiziqishim ortaverdi va meni adabiyot butunlay rom etib qo'ydi". Suyima G'aniyeva ustozlarining tavsiyalariga ko'ra o'qishini Sankt-Peterburg adabiyot institutida davom ettiradi. 1956-yili Leningrad Davlat universitetida nomzodlik dissertatsiyasini yoqlagan Suyima G'aniyeva dissertatsiyaning avtoreferati kitob holida chop etilgani va ilk kitobi o'zi uchun naqadar qadrli bo'lganini alohida ta'kidlar ekan, "esimda, bu kitobimni tug'ilgan kunimda qo'limga olganman. Kitobim o'z-o'zimga sovg'a edi" deya ta'riflaydi.

¹ Suyima G'aniyeva. Ko'ngil shamchirog'i. «Yoshlik» jurnalining 2012 yil 1-soni

² Suyima G'aniyeva. Ko'ngil shamchirog'i. «Yoshlik» jurnalining 2012 yil 1-soni

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Hayotda shunday shaxslar bo'ladi-ki, ular o'z mehnatlari mevasi o'laroq nomlarini buyuk shaxslar ismi bilan birga xotirlanadiganlar qatoriga qo'shadilar. Xuddi shunday, Suyima G'aniyeva ismi buyuk alloma Alisher Navoiy bilan bog'liq bo'lgan shaxslardan biriga aylandi. Olima Alisher Navoiyning besh, o'n, hatto yigirma jildlik asarlarini nashrga tayyorlagan. "Majolis un nafois"ning ilmiy-tanqidiy matnini, keyinroq esa "Navoiy dastxati" kitobini o'quvchilar hukmiga havola etgan.

Alisher Navoiy mukammal asarlar to'plami (20 tomlik)da Suyima G'aniyeva "Majolis un-nafois", "Mahbub ul-qulub", "Munshaot", "Vaqfiya", "Hamsat ul-mutahayyirin", "Holoti Sayyid Hasan Ardasher", "Holoti Pahlavon Muhammad", "Nazm ul-javoxir", "Muhokamat ul-lug'atayn" kabi bir qancha asarlarni izoh hamda tarjimalar bilan nashrga tayyorlagan.

1961-yilda "Majolis un-nafois" asarining ilmiy-tanqidiy matni arab yozuvida so'zboshi bilan nashr etiladi-yu, bir nechta mamlakat olimlari tomonidan katta qiziqish bildiriladi. O'z ilmiy kashfiyotlarini muvaffaqiyatli bo'lishi zamirida uning sabr-matonati, intiluvchanligi, g'ayrat va shijoati yotadi. Adabiyotshunos, matnshunos olima Suyima G'aniyeva "Majolisun-nafois"ning ilmiy-tanqidiy matnini tayyorlash davomida asarning Vena, Parij, Leningrad, Boku va ikkita Toshkent, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondida saqlanayotgan 8389, 5289, 9394, 7745 inventar raqamli nusxalarni chuqur o'rganib chiqadi. Shundan so'ng olima asarni rus tiliga tarjima qilishga kirishar ekan, ilmiy ustoz Aleksandr Nikolaevich Boldirevdan oq fotiha oladi. Katta mehnat natijasida 1970-yili asar tarjimasi muvaffaqiyatli yakunlanadi. Keyinchalik "Majolis un-nafois" haqida o'zbek, ingliz, rus, fors, fransuz va boshqa tillarda ellikka yaqin maqolalari chop etiladi. Xalqaro anjumanlarda o'z nutqlari bilan ishtirok etadi.

1991-yil Erondagi Koxi Guliston muzeyidagi Navoiy hazratlarining o'z qo'li bilan yozilgan "Navodir un-nihol" devonini: o'zbek, rus, ingliz va fors tillarida so'z boshi bilan nashr etishga erishadi. Alisher Navoiyning diniy mavzudagi sof diniy ahkomlarni yoritishga bagishlangan asarini 1990-yilda, umrining so'ngida yozgan "Munojot" 1991-yilda ilk marotaba "Yoshlik" jurnalida nashr etilgani Suyima G'aniyevani behad quvontiradi. Yigirmadan ortiq kitob, uch yuzdan ziyod ilmiy maqolalar muallifi Suyima G'aniyevaning ilm-fanga qo'shgan hissasi munosib baholanib "El-yurt xizmati", "Buyuk xizmatlari uchun" ordenlari, Abu Rayhon Beruniy nomidagi O'zbekiston Davlat mukofoti, "O'zbekiston qahramoni" unvonlari bilan taqdirlangan.

O'z hayotini sarhisob qilar ekan: "Umrim ne-ne ulug' zotlarning bebaho meroslarini varaqlash bilan o'tdi. Men bu bilan har qancha faxrlansam arziydi. Ijodiy

faoliyatim davomida turli xil mavzularda besh yuzdan ortiq maqola e’lon qildim. O’nlab matn, yigirmaga yaqin tarjimalar va risolalarim chop etildi, Yaratganga ming shukrki, butun umrim ilm ichida o’tmoqda”, deya yozadi. Ilm dunyosida mangu nur sochib turuvchi Navoiy ijodining bizga noma’lum jahbalarini ochishga umrining katta qismini bag‘ishlagan Suyima G‘aniyeva 86 yoshida bu dunyonni tark etdi. Ammo uning fanga qo‘sghan hissasi barhayot..

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Suyima G‘aniyeva. Ko‘ngil shamchirog‘i. «Yoshlik» jurnalining 2012 yil 1-soni
2. “Alisher Navoiy va XXI asr” mavzusidavi ilmiy-nazariy anjuman materiallari
3. <https://arboblar.uz/uz>
4. <https://kun.uz/news>